

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Umumiy fizika va qurilish muhandisligi” kafedrası
professor-o‘qituvchilari tashabbusi bilan

**18-noyabr - O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i qabul
qilinganligining 34 yilligi munosabati bilan**

“Bayrog‘imiz - milliy g‘ururimiz” nomli

ilmiy-ma‘rifiy tadbir

B A Y O N N O M A S I.

18.11.2025 y

Denov tumani

Qatnashdilar: Kafedraning barcha professor-o‘qituvchilari, fizika yo‘nalishi talabalari

KUN TARTIBI:

1. “Bayrog‘imiz - milliy g‘ururimiz” ilmiy-ma‘rifiy tadbirini o‘tkazish.
2. Bayroqning yaratilish tarixi bo‘yicha talabalarga ma‘lumot berish.
3. Faol ishtirok etgan talabalarini taqdirlash.

(Tadbir o‘tkaziladigan faollar zali bayramona va milliy ruhda bayroqni aks ettiruvchi bezaklar bilan jihozlangan, Tadbirni saviyali o‘tishi uchun kerakli texnik jihozlar, ovoz-kuchaytirgich moslamalar, musiqiy asboblari qo‘yilgan).


ESHITILDI:

2025 yil 18 noyabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Umumiy fizika va qurilish muhandisligi” kafedrası professor- o‘qituvchilari tashabbusi bilan “Bayrog‘imiz - milliy g‘ururimiz” ilmiy-ma‘rifiy tadbiri bo‘lib o‘tdi. Tadbirda fizika ta‘lim yo‘nalishi talabalari faol ishtirok etdilar.

Dastlab tadbir ishtirokchilari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi barchaning hurmat-e'tiborini uyg'otgan holda tantanali ravishda ijro etildi. Ushbu jarayon yig'ilganlarga bayramona ruh baxsh etib, tadbirning mazmun-mohiyatini yanada yuksaltirdi. Shundan so'ng tadbirni ochib berish hamda uning maqsad va vazifalarini yoritib berish uchun so'z Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor A.X. Mengliboyevga berildi. U o'z nutqida bayroqning davlat ramzi sifatidagi o'rnini, uning tarixiy, siyosiy va ma'naviy ahamiyati haqida atroflicha to'xtalib o'tdi.

Tadbirning navbatdagi qismida fizika yo'nalishi talabalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'ining yaratilish tarixi, ramziy ma'nosi va ranglar kompozitsiyasiga oid ilmiy-ommabop ma'lumotlar taqdim etildi. Shuningdek, ular tomonidan Vatan ramzlariga bag'ishlangan she'rlar, kuy va qo'shiqlar ijro etildi, milliy laparlar esa tadbirga yanada ko'tarinki ruh bag'ishladi. Mazkur chiqishlar yoshlarning nafaqat ijodiy salohiyatini, balki davlat ramzlariga bo'lgan chuqur hurmatini ham namoyon etdi.

Tadbir yakunida esa O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'ining yaratilish jarayoni, uning mualliflari va bayroq konsepsiyasida mujassamlashtirilgan ma'naviy-ruhiy g'oyalarni yorituvchi maxsus videorolik namoyish etildi. Videomaterial tadbir ishtirokchilarida davlat ramzlariga nisbatan iftixor, g'urur va mas'uliyat tuyg'ularini yanada mustahkamlashga xizmat qildi.





“Bayrog‘imiz — milliy g‘ururimiz” nomli ilmiy-ma‘rifiy tadbir yuqori saviyada, tantanali ruhda va mazmunan boy tarzda o‘tkazildi. Tadbir davomida ishtirokchilarga davlat ramzlarining tarixiy-madaniy ahamiyati, uning ramziy mazmuni hamda yoshlar ongida vatanparvarlik, milliy o‘zlikni anglash tuyg‘ularini shakllantirishdagi o‘rni keng yoritib berildi. Tadbirning tashkiliy darajasi, ilmiy-ma‘rifiy mazmuni va ko‘tarinki ruhda o‘tgan ijodiy chiqishlar uning yanada maroqli va esda qolarli bo‘lishini ta‘minladi.

QAROR QILINDI:

1. “Koinotni zabt etishdagi yutuqlar” ilmiy-ma‘rifiy tadbir maroqli o‘tkazildi deb hisoblansin.
2. Tadbirda faol ishtirok etgan talabalar taqdirlansin.
3. Talabalarning fizikaga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida bunday tadbirlar yanada ko‘proq o‘tkazilsin.

Yig‘ilish raisi:

E. Yusupov

Kotib:

Sh. Zamonova